Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 94
IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR

O'ZBEKISTON HUDUDIDAGI DAVLATCHILIK RAMZLARI TIZIMIDA QADIMGI TURK TOSH HAYKALLARINING O'RNI

Mahliyo Misrbekova*
Samarqand davlat chet tillari instituti o'qituvchisi
✉ misrbekovamahliyo1234@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada qadimgi turk tosh haykallarining hozirgi O'zbekiston hududidagi qadimgi davlatchilik ramzlari tizimidagi o'rni tahlil qilinadi: I.N. Sharafutdinov, V.S. Olxovskiy va G'.Boboyorov tadqiqotlari asosida haykallarning tarixshunoslik, semiotik va ma'muriy-institutsional ahamiyatining ayrim jihatlari ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar

qadimgi turk tosh haykallar, balbal, davlatchilik ramzlari, Turk xoqonligi, semantika.

DOI: 10.5281/zenodo.21743394

Kirish.

Hozirgi O'zbekiston hududidagi qadimgi davlatchilik an'analarini o'rganishda milodiy VI–VIII asrlarga, Turk xoqonligi davriga oid qadimgi turk tosh haykallar muhim o'rin tutadi. Sharafutdinov [1], Olxovskiy [2] va Boboyorov [3] tadqiqotlari asosida ularning tarixshunoslik, semiotik va ma'muriy ahamiyati tahlil qilinadi.

Sharafutdinov tadqiqotlarda ikkita asosiy gipotezani ajratadi: birinchisiga ko'ra (Klemens, Kazakevich, Potapov, Gumilev, Kizlasov) haykallar vafot etgan zodagon turklar sharafiga, ularning qabri yoki kuydirilgan joyiga o'rnatilgan ota-bobolar kulti va xotira marosimi asosiy funksiya hisoblanadi. Ikkinchisiga ko'ra (Bartold, Veselovskiy, Grach) haykallar mag'lub etilgan dushmanlarni tasvirlagan; Grach fikricha, karvon yo'llaridagi haykallar Turk xoqonligining qudratini namoyish etib, dushmanlarni dahshatga solish maqsadida qo'yilgan bu gipoteza siyosiy-davlatchilik funksiyasini birinchi o'ringa qo'yadi [1]. Sharafutdinov bu ikki gipotezani bir-birini istisno etmaydigan, balki to'ldiruvchi deb baholaydi. Shuningdek, «balbal» atamasi dastlab mag'lub dushmanlarni ifodalovchi oddiy tosh ustunlarga nisbatan qo'llanilgan, keyinchalik esa antropomorf tosh haykallarga nisbatan ham ishlatila boshlangan bu ikki tushunchaning tarixiy jihatdan qisman farqli, ammo o'zaro bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Olxovskiyning tamg'a-semiotik tasnifi bu xulosani nazariy jihatdan mustahkamlaydi: har qanday belgi tizimi axborot uzatish, homiylik-bo'ysunish va hududiy tegishlilik funksiyalarini bajaradi bu xususiyatlar tosh haykallarda ham kuzatiladi: karvon yo'llaridagi haykallar xoqonlikning homiylik belgisi, dovon va qabristonlardagi haykallar esa hududiy belgi vazifasini o'tagan[2]. Qush tasvirli haykallar esa «himoyachi-tumor» funksiyasini bajarib, marhum ruhining qushga aylanib, marosim davomida hozir bo'lib, so'ngra narigi dunyoga uchib ketishi haqidagi tasavvurni aks ettirgan. Olxovskiyning ta'kidlashicha, grafik belgilar yig'indisining tizimga aylanishi ularning tartibliligini, ya'ni shakllanish va faoliyat ko'rsatish qoidalarini nazarda tutadi tosh haykallarning ikonografik jihatdan qat'iy qoidalarga bo'ysunishi ularning tasodifiy emas, balki mustahkam tizim ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Boboyorovning Tun yabg‘u xoqon (618–630) davriga oid tadqiqotlari tosh haykallarni turkiy tangalar va tamg‘alar bilan bog‘laydi: qadimgi turk an’anasida hukmdorlar tug‘ilgan nomi bilan emas, harbiy salohiyati va fazilatiga qarab unvon bilan atalgan, xuddi shunday unvonlar tosh haykallar yozuvlarida ham aks etgan. Suyab shahridagi Tun yabg‘u xoqon qarorgohi tavsifi (Syuan Tszan qaydlariga ko‘ra) hukmdorning marosim qabul tizimini ko‘rsatadi; bu tavsifdagi marosim an’analari bilan tosh haykallardagi qo‘lida idish tutgan hukmdor tasviri o‘rtasida ikonografik parallel o‘rnatish mumkin. Turkiy tangalardagi «taxtda o‘tirgan, ikki sherga qarab turgan hukmdor» ikonografiyasini tosh haykallar bilan bir xil mafkuraviy g‘oya hukmdorning ilohiy-siyosiy qudrati sifatida bog‘laydi; «tamg‘achi» (muhrdor) lavozimining mavjudligi esa yagona ramziy-ma’muriy tizim shakllanganidan dalolat beradi [3]. Ya.A. Sher tasnifiga ko‘ra tosh haykallar oltita tipologik guruhga bo‘linadi qurolli va qurolsiz, faqat yuz tasvirlangan, qushli, bir yoki ikki qo‘lida idish ushlagan erkak va ayol haykallar[4]; Kizlasov ta’kidlashicha, ular marosim majmuasida faol ishtirok etib, marhum o‘rniga «o‘tirgan», qurbonlik taomida «ishtirok etgan» deb tasavvur qilingan, ya’ni marhum ruhi bilan aloqa vositasi bo‘lgan.

Turk xoqonligi davrida (milodiy VI–VIII asr) Choch, Samarqand, Buxoro kabi shaharlar xoqonlik vassali sifatida faoliyat yuritgan; bu davrda tosh haykallar ham xoqonlik mafkurasining moddiy ifodasi sifatida hududda o‘rnatilgan. G‘arbiy Turk xoqonligi davrida Choch vohasi muhim zarbxona markaziga aylangan bu fakt Choch vohasining turkiy davlatchilik ramzlari shakllanishidagi alohida o‘rnini ko‘rsatadi: tosh haykallar, tangalar va tamg‘alar bu yerda yaxlit ramziy tizimni tashkil etgan. Olxovskiyning tamg‘a evolyutsiyasi geraldika, din, huquq, an’anaviy-turmush yo‘nalishlar haqidagi xulosasi tosh haykallarga ham tatbiq etiladi ular bir vaqtning o‘zida geraldik-hukmdor tasviri, diniy marhum ruhi bilan aloqa, huquqiy-hududiy tegishlilik va marosim funksiyalarini bajargan.

Sharafutdinov tomonidan bir-birini to‘ldiruvchi deb baholangan ikki gipoteza ota-bobolar kulti va dushman tasviri ularning nima sababdan bir vaqtning o‘zida mavjud bo‘lganligini izohsiz qoldiradi. Fikrimizcha, bu ikki gipoteza tosh haykallar an’anasining qatlamlanishini aks ettiradi: dastlabki bosqichda tosh haykallar shaxsiy-diniy xarakterga ega bo‘lib, marhum zodagonning xotirasini abadiylashtirish vositasi bo‘lgan; Turk xoqonligi davlat institutlari mustahkamlangan sari esa aynan shu diniy-marosim shakli davlat tomonidan siyosiy-mafkuraviy vositaga aylantirilgan. Grach ta’kidlagan «dushmanni dahshatga solish» funksiyasi aynan ushbu ikkinchi bosqichiga tegishlidir. Taklif etilayotgan talqin Olxovskiyning belgi tizimlari, qoida tariqasida, diniy funksiyadan geraldik-huquqiy funksiyaga tomon evolyutsiyalashishi haqidagi umumnazariy xulosasidan mantiqan kelib chiqadi; biroq uni bevosita tosh haykallar materialiga tatbiq etish uchta manbada alohida-alohida bayon etilgan qarashlarni yagona kontseptual tizimga birlashtirish orqali ushbu tadqiqotning o‘ziga xos ilmiy natijasidir.

Xulosa.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, qadimgi turk tosh haykallari hozirgi O‘zbekiston hududidagi qadimgi davlatchilik ramzlari tizimida markaziy o‘rin egallaydi. Ilmiy tadqiqot materiallari tosh haykallarning ko‘p qatlamli, qat’iy ikonografik qoidalarga bo‘ysunuvchi yaxlit ramziy tizim ekanligini tasdiqlaydi. Ushbu manbalar asosida maqolada ikki gipotezaning nafaqat bir-birini to‘ldiruvchi, balki diniy funksiyadan institutsional funksiyaga o‘tish jarayonining diaxronik ifodasi sifatidagi talqini taklif etildi. Olingan natijalar tosh haykallarning nafaqat diniy-marosim, balki aniq siyosiy-huquqiy ahamiyatga ham ega bo‘lganligini ko‘rsatadi, bu esa ularni mintaqa davlatchilik an’analarining muhim moddiy-mafkuraviy ifodasi sifatida baholash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Шарафутдинов И.Н. Некоторые вопросы семантики древнетюркских каменных изваяний в отечественной историографии // Известия Самарского научного центра Российской академии наук. – Т. 11. – № 2. – 2009. – С. 203–206.

2. Ольховский В.С. Тамга (к функции знака) // Историко-археологический альманах. – № 7. – Армавир: Армавирский краеведческий музей, 2001. – С. 75–86.

3. Бобоёров Ғ. Тун ябғу-хоқон (рисола). – Т.: ABU MATBUOT-KONSALT, 2011. – 48 б.

4. Шер Я.А. Каменные изваяния Семиречья. – М.-Л.: Наука, 1966. – 140 с.